

Xizmat Ko ‘Rsatisf Sohasi Rivojlanishining Mamlakat Iqtisodiy Rivojlanishga Ta’siri

N. P. Imamov¹, Ruziqulov Abduqahhor²

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiy o’sishiga ta’siri tahlil qilingan. An’naviy ishlab chiqarish sektorlariga nisbatan xizmat ko’rsatisf sektori iqtisodiy o’sish, bandlik va transport sohalarida muhim rol o’ynashi va shuningdek O’zbekistondagi iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanish dinamikasi, raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari, pandemiya keyingi o’zgarishlar va undan keyingi tiklanishni o’rganadi.

Kalit so’zlar: Xizmatlar sohasi, iqtisodiy o’sish, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, bandlik, iqtisodiy siyosat, yalpi ichki mahsulot, ishlab chiqarish sektori, transport, ta’lim.

Hozirgi kunda zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim qismi ishlab chiqarish va sanoat korxonalari hisoblanadi. An’naviy ishlab chiqarish sektorlariga nisbatan ko’proq xizmatlar sohasi iqtisodiy o’sish ta’minalashda, bandlikni ta’minalashda va yangi innovatsiyalardan foydalanishda katta rol o’ynaydi. Ushbu soha milliy daromad va yalpi ichki mahsulotning(YIM)ning ham katta qismini tashkil etadi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiy samaradorlikning oshishi, resurslardan yetarlicha foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali har bir sektorning umumiy o’sish sur’atlariga ta’sir ko’rsatadi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotida texnologiya va global mashhuv jarayonlari ushbu sohaning jadal rivojlanishiga katta turtki, chunki axborot texnologiyalari, moliya xizmatlari, ta’lim va transport xizmatlari iqtisodiy o’sishning yangi dinamikasini boshqarishga xizmat qiladi.

Ushbu olib borilayotgan izlanish O’zbekiston misolida ham xizmatlar sohasi iqtisodiyoti mamlakatning rivojlanishning muhim harakat kuchiga aylandi. Davlat tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmat ko’rsatisfi tashkil etish tadbirlarini ishlab chiqarish davlat uchun bu sektorning makro iqtisodiy barqarorligiga ham ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, ushbu maqoladagi xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini tahlil qilish, turli sohalarda o’sish dinamikasini o’rganish va rivojlanish sektorining umumiy iqtisodiy faoliyatga qo’shimcha hissasi haqida o’rganadi.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti global miqyosda iqtisodiy sektorning global samaradorligidan biriga aylangan. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, ushbu sohasining iqtisodiy o’sishga ta’siri kuchli va doimiydir. Quyida shu mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlarning fikrlari tahlili keltiriladi:

Xizmatlar sohasining bandlikka ta’siri haqida ham bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jones (2017) o’z izlanishida xizmatlar sohasining bandlikdagi o’rnini tahlil qilib, uning iqtisodiy rivojlanishiga qo’shgan hissasini ta’kidlaydi. Va bu natijaga erishish uchun yuqori malakali kadrlar talab etilishini aniqlaydi(masalan, IT sohasi kadrlari va boshqalar).

Ba’zi tadqiqotchilar (Hassan 2018) sanoat sektorining eksport va investitsiyalarni jalb qilishdagi rolini o’rgangan. Ularning izlanishlariga ko’ra, sohasining rivojlanishi ichki va tashqi investitsiyalarni miqdoriga bog’liq va uni rag’batlantirish mamkakatning xalqaro savdo hajmini oshirda xizmat qiladi. Bunda tarmoq sektori eksportining yuqori qo’shilgan qiymatga ega bo’lgan mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy o’sish sur’atlarini tezlashtirishga olib keladi.

¹ Sam ISI o’qituvchisi

² Sam ISI XIM-124 talabasi



Raqamli texnologiyalar sohasining rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Abdulloev (2019) sanoat sektorida dasturiy strategiyalar va texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishiga ta'sirini tahlil qilib, kompyuter platformalari va onlayn iqtisodiy o'sishning yangi yo'nalişlarini yaratganini takidlaydi. Bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarida ish o'rnlari yaratilishi va resurslardan samarali foydalanishni anglatadi.

Tadqiqotda statistik tahlil usullari qo'llanilib, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda kambag'allik darajasiga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi. Mehnat bozorining transformatsion o'zgarishlari esa iqtisodiy modellashtirish va empirik dalillarga asoslangan yondashuvlar orqali tahlil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika Boshqarmasi tomonidan yig'ilgan ma'lumotlarga asosan O'zbekiston hududida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining ichiga kiruvchi tarmoqlarga kirib borishi raqamli sifralarda:

Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlarining o'sish sur'ati (yillik) foizda	114.6	121.3	115.9	108.3	123.8	126.4	128.8	125.4
Ta'lim sohasi-dagi xizmatlar hajmi(yillik)ming dona	3263	4402	5416.5	7164.9	8539.4	12102.6	15858.4	20472.7
Moliya xizmat-larning o'sish sur'atlari (yillik) foizda	119.8	136.5	121.5	147	125.6	128	131.7	121.6
Transport xizmatlarning o'sish sur'atlari (yillik) foizda	107.8	109.9	104.5	106.7	91.4	115.7	111.8	107.2
Savdo xizmat-larning o'sish sur'atlari (yillik) foizda	120.5	100.3	104.9	107.4	103.8	112.3	108.3	110.6
Boshqa xizmat-larning o'sish sur'atlari (yillik) foizda	114.9	111.8	121.2	116.3	99.7	113	114.4	125.7

2016-2023 yillar davomida O'zbekistonda sohasining dinamik o'sishi mamlakatda turli o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu davrni amalga oshirilayotgan tahlilda, sohalar orqali o'zgarishlar va iqtisodiy ta'sir ko'rsatadigan tendentsiyalarni aniqlash maqsad qilib olingan. Xizmatlar sektori umuman olganda o'sishda davom etgan, biroq ayrim yillar va sohalar bo'yicha ma'lum darajada farqlar paydo bo'lган. Axborot va aloqa xizmatlari 2016-2023 yillar davomida o'sish sur'atlari sezilarli darajada o'zining namoyish etgan. Raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida o'sishda davom etmoqda. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi tufayli ba'zi pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da (108.3%), keyingi yillarda bu soha yana tiklanib, o'sish 2022-yilda 128.8% va 2023-yilda 125.4% darajasiga yetdi. Bu axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya xizmatlarining mamlakat iqtisodiyotidagi rolini yanada mustahkamlangan.

Ta'lim xizmatlarining hajmi yillar davomida katta o'sish ko'rsatgan. 2016-yildagi 3263 ming dona foydalanish hajmi 2023-yilda 20472,7 ming donaga yetgan. Bu O'zbekistonda ta'lim sohasiga qo'yilgan e'tibor shuningdek moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi sarmoyalar dalilidir. So'nggi yillarda aholining ta'limga bo'lgan talabi va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish orqali malakaviy bilim bilan bog'liq muammolarni hal etish ta'lim xizmatlarining samarasining o'sishi anglatadi. Moliyaviy sohasi ham tahlil qilingan davrda jadal rivojlanib, 2016-yildagi 119,8% o'sish sur'atidan 2022-yilda 131,7%



gacha o'sdi. lekin, 2023-yilda o'sish sur'ati 121,6% ga pasaydi. Ushbu pasayishning sabablari moliya bozorida yuz berayotgan global iqtisodiy shuningdek milliy iqtisodiy siyosatlardagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lganini tahmin qilishimiz mumkin.

Transport xizmatlari 2020-yilda pandemiya cheklovleri sababli jiddiy zarba oldi, bu davrda o'sish sur'ati 106,7% ga tushdi. keyin, keyingi bu soha tiklanib, 2021-yilda 115.7% va 2022-yilda 111.8% o'sishni qayd etdi. Pandemiya xalqaro va milliy transport xizmatlari faoliyatida qisqarish holatlariga olib keldi, keyingi davrda iqtisodiyotning qayta tiklanishi va tashkilotning savdosi bilan transport sektori yana o'sishni davom etdi. Savdo xizmatlari 2016-yilda 120,5% ko'rsatkich bilan yuqori darajada, ammo 2020-yilda pandemiya sababli darajaning pasayishiga olib kelgan(103,8%). 2022-yilga kelib bu soha 110,6% o'sishga erishgan bo'lsa-da, transport va logistika bilan bog'liq daromad savdo xizmatlariga ta'sir ko'rsatgan. Savdo iqtisodiy taraqqiyot va iste'molchilar talabi bilan chambachas bog'liq bo'lganligi tufayli bu sohadagi o'sish sohada iqtisodiy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Pandemiya paytida ko'pgina sohalarda pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da, saqlash va ta'lim saqlash o'zini saqlashini saqlab qolgan va hatto o'sishni davom ettirgan. **Raqamli texnologiyalar xizmatlar sohasini** jadal rivojlanishi axborot, moliyaviy va ta'limda yuqori darajada o'sish sur'atlarini ta'minlagan. Kelajakda, bilimlar iqtisodiyotning rivojlanishi bilan mehnat qilishning robot va **sun'iy intellekt, blokcheyn, fintech** kabi texnologiyalari orqali ishchi kuchi jihatdan quvvatlanishi kutilmoqda. Shu sababli, resurslarni qayta tiklash, texnologik investitsiyalar orqali mamlakat iqtisodiyotining yangilanishini ta'minlash har bir rivojlanayotgan mamlakat uchun juda muhim.

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotini rivojlantirish nafaqat mamlakat rivoji balki aholining yashsh tarzini ham yaxshilanishiga sabab bo'lishini yuqoridagi tahlillar orqali ko'rishimiz mumkin. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi mamlakat YaIM o'sishiga sezilarli hissa qo'shib, boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil va xizmatlar sektoridagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. Ushbu sohani diversifikatsiya qilish va texnologiyalarni kengroq joriy etish kelajakdag'i iqtisodiy rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining barqaror o'sishi uchun hukumatning qo'llab-quvvatlashi va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari muhimdir. Kelgusidagi izlanishlar xizmatlar sohasida texnologik taraqqiyot va raqobatbardoshlik masalalariga qaratilishi lozim.

Ushbu maqola tahlilidan chiqadigan shuki, sohasi iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda muhim bo'lib xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari, ta'lim, moliya va transport xizmatlari iqtisodiyotda yangi dinamikalar yaratib, yuqori daromadli va mehnat resurslarining bandligiga hissa qo'shadi. O'zbekiston misoldida esa so'nggi davrda sohaning jadal rivojlanishi milliy iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, axborot texnologiyalari bilan moliya sektorlarini ta'minlash darajasi o'sishi O'zbekistonni yetakchi mamlakatlaridan biri sifatida o'zini tanitishiga sabab bo'ldi.

Kelajakda foydalanish sohasining yanada rivojlanishi uchun takliflar kiritiladi:

- Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish:** Xizmatlar sohasida innovatsion va axborot texnologiyalari, texnologiyalarni jalb etishga qaratilgan investitsiyalar kirib kelish oqimini rivojlantirish orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish.
- Kadrlar malakasini oshirish:** Ta'lim xizmatlari sohasida raqamli texnologiyalarni foydalanish va kadrlar malakasini oshirish.
- Moliyaviy yordam berish:** Moliyaviy yordamni ta'minlash uchun davlat tomonidan turli xil chora-tadbirlar amalga oshirish va xalqaro sarmoyalarni jalb qilishni rag'batlantirish. Bunda har bir byudjet tizimi quvvatni rivojlantirish, bank xizmatlarini raqamlashtirish va yangi moliyaviy mahsulotlarni aholga yetkazib berish.
- Transport infratuzilmasini rivojlantirish:** Transport xizmatlari doimiy ravishda rivojlanish jarayoni bo'lsa-da, xalqaro talablarga mos ravishda o'zgartirish va sifat jihatdan mukammallashtirish orqali amaga oshiriladi.



5. **Xizmatlar sohasida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:** Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishni davlatning maxsus programmalarini asosida rag'batlantirish, o'zgarishlarga chidamli qilish va doimiy zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash kerak. Bu, iqtisodiy o'sishga turki berish bilan birga, yangi ish o'rnlari ochishga ham xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, Q. "O'zbekistonning iqtisodiy sektorini rivojlantirish masalalari". O'zbekiston Iqtisodiyoti Jurnali , 202
2. Smit, A. "Iqtisodiy o'sishda xizmatlarning o'rni: global istiqbol". Iqtisodiy istiqbollar jurnali ,
3. Soliyeva, N. "Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini raqamlashtirish va uning iqtisodiyotiga ta'siri". Milliy tadqiqot Jurnali ,
4. Jones, R. va Simmons, P. "Avtomatlashtirishning xizmat ko'rsatish sohalarida bandlikka ta'siri". Jahon taraqqiyoti hisoboti , 2020 yil.
5. Statistika qo'mitasi. 'O'zbekiston Respublikasining qabul qilish ko'rsatkichlari" . Toshkent,
6. Jahon banki. "Xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida raqamli transformatsiya". Jahon banki guruhi hisoboti , 2020
7. Qarshiyev A.S. 'Fintech and its impact on financial services ', Journal of New Century Innovations, Volume-59 | Issue-1, Pages 9-15
8. Safarov, I. "O'zbekistonning pandemiya tufayli yuzaga kelgan muammolar va tiklanish yo'llari". Iqtisodiy Tahlil Jurnali ,
9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. "Global xizmatlar savdosi va iqtisodiy o'sish". UNCTAD hisoboti , 2021 yil
10. Anderson, T. va Zhao, X. "Moliyaviy xizmatlar va iqtisodiy barqarorlik: Rivojlanayotgan bozorlar misoli". Xalqaro iqtisodiyot jurnali.
11. Mamatqulov, S. "O'zbekiston iqtisodiyotida transport va logistika xizmatlarining ahamiyati". Transport va Iqtisodiyot Jurnali , 2023 yil.
12. Qarshiyev A.S. 'Iqtisodiy inqirozlarni boshqarish strategiyalari' , Journal of Iqro, Special Issue, August 2024.

